

**RAQAMLI AVLODNI AXLOQIY TARBIYALASHNING PEDAGOGIK
ASOSLARI(BOSHLANG'ICH SINIF MISOLIDA)**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston
Milliy Universiteti 4-kurs talabalari*

Mamarizayeva Z.

Asrayeva A.

Murodillayeva S.

Fayzmurotova V.

Annotatsiya: Ushbu maqolada XXI asr axborotlashgan jamiyat sharoitida raqamli texnologiyalar inson hayotining barcha jabhalariga, xususan, ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'sir qilishi, internet tarmoqlari, mobil qurilmalar, ijtimoiy platformalar va sun'iy intellekt vositalari bolalarning dunyoqarashi, tafakkuri, qadriyatlari va ijtimoiy xulq-atvoriga bevosita ta'siri ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari raqamli makon bilan ilk bor faol va mustaqil muloqot qiladigan yosh bosqichida bo'lgani sababli, ularning axloqiy tarbiyasini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish dolzarb masalaga aylanganligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim-tarbiya, internet tarmoqlari, mobil qurilmalar, ijtimoiy platformalar, sun'iy intellekt

Аннотация: В данной статье освещается влияние цифровых технологий на все аспекты человеческой жизни, в частности на образовательный процесс, в контексте информационного общества XXI века, а также прямое воздействие интернет-сетей, мобильных устройств, социальных платформ и инструментов искусственного интеллекта на мировоззрение, мышление, ценности и социальное поведение детей, особенно учитывая, что учащиеся начальной школы находятся в возрасте, когда они впервые активно и самостоятельно взаимодействуют с цифровым пространством, и организация их нравственного воспитания на основе современных педагогических подходов стала актуальной проблемой.

Ключевые слова: образование, интернет-сети, мобильные устройства, социальные платформы, искусственный интеллект.

Abstract: This article highlights the impact of digital technologies on all aspects of human life, in particular the educational process, in the context of the 21st century information society, and the direct impact of Internet networks, mobile devices, social platforms, and artificial intelligence tools on children's worldview, thinking, values, and social behavior, especially since primary school students are at the age when they first actively and independently interact with the digital space, and organizing their moral education based on modern pedagogical approaches has become a pressing issue.

Key words: education, internet networks, mobile devices, social platforms, artificial intelligence.

XXI asr axborotlashgan jamiyat sharoitida raqamli texnologiyalar inson hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bordi. Natijada “raqamli avlod” tushunchasi ilmiy muomalaga kirib keldi. Raqamli avlod – bu bolalik davridan boshlab internet, mobil qurilmalar va axborot texnologiyalari muhitida voyaga yetayotgan yoshlar qatlamidir. Raqamli avlod vakillari axborotni tez qabul qiladi, vizual tafakkur ustuvor, qisqa va lo‘nda ma’lumotlarni afzal ko‘radi. Ular ko‘p vazifalilik sharoitida ishlashga moslashgan. Shu bilan birga, chuqur tahliliy fikrlash va uzoq muddatli diqqatni jamlay olish ko‘nikmalari ustida alohida ishlash zarur. Raqamli transformatsiya sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy tarbiyalash muammosi pedagogika fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar va multimedia resurslar bolalarning dunyoqarashi, muloqoti va qadriyatlar tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois ta’lim jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiya bilan raqamli madaniyatni uyg‘unlashtirish zarurati ortib bormoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari aynan shu jarayonning markazida turadi. Ularning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy xulq-atvori raqamli muhit ta’sirida shakllanmoqda. Raqamli muhitning ijobiy jihatlari:

- tezkor axborot olish imkoniyati;
- interaktiv ta’lim resurslari;
- mustaqil o‘rganish imkoniyati;
- kreativ fikrlashni rivojlantirish.

Salbiy jihatlari:

- internet qaramligi;
- kiberbulling;
- noto‘g‘ri axborot ta’siri;
- zararli kontentga duch kelish xavfi.

Raqamli makonda bolalar turli axloqiy tahdidlarga ham duch kelishi mumkin. XXI asr axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asri sifatida insoniyat taraqqiyotida tub burilish yasadi. Internet, mobil qurilmalar, ijtimoiy tarmoqlar, sun‘iy intellekt va raqamli platformalarning keng ommalashuvi natijasida jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, muloqot shakllari, ta’lim tizimi hamda shaxsning dunyoqarashi sezilarli darajada o‘zgardi. Ayniqsa, bolalik davridan boshlab raqamli muhitda ulg‘aygan yoshlar yangi ijtimoiy qatlam – raqamli avlodni shakllantirdi. Raqamli avlod deganda axborotni asosan elektron manbalar orqali qabul qiladigan, virtual makonda faol ijtimoiylashadigan, texnologiyalarni tez o‘zlashtiradigan va kundalik hayotini internet hamda mobil qurilmalar bilan bog‘laydigan yoshlar tushuniladi. Ular uchun raqamli texnologiya oddiy vosita emas, balki hayot tarzi hisoblanadi. Raqamli avlodning

shakllanishi globalizatsiya jarayonlari, internetning ommalashuvi, mobil aloqa vositalarining arzonlashuvi va axborot oqimining keskin ortishi bilan bevosita bog'liqdir. Axborotga tezkor kirish imkoniyati ularning fikrlash tezligi, qaror qabul qilish uslubi va muloqot madaniyatini o'zgartirdi.

Ijtimoiy jihatdan raqamli avlod vakillari ko'proq virtual ijtimoiylashuvga moyil bo'ladi. Ular do'stlik, fikr almashish, o'zini namoyon qilish va hatto ta'lim jarayonini ham onlayn platformalar orqali amalga oshiradi.

Bu holat ijtimoiy aloqalarning geografik chegaralarini kengaytiradi, biroq real muloqot ko'nikmalarining sustlashishiga ham olib kelishi mumkin. Raqamli avlodning muhim xususiyatlaridan biri global identifikatsiyaga moyillikdir. Ular turli madaniyatlar, g'oyalar va qadriyatlar bilan tezkor tanishadi. Natijada kosmopolit dunyoqarash shakllanadi. Shu bilan birga, milliy identitetni mustahkamlash va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Psixologik jihatdan raqamli avlod tezkor axborot oqimiga moslashgan tafakkurga ega. Ular qisqa, vizual va interaktiv ma'lumotlarni tez qabul qiladi. Video, animatsiya va grafik materiallar matnga nisbatan samaraliroq idrok etiladi. Natijada fragmentar tafakkur shakllanishi mumkin, ya'ni axborot bo'lak-bo'lak qabul qilinadi. Bu esa chuqur tahliliy o'qish ko'nikmalariga ta'sir ko'rsatadi. Multitasking, ya'ni bir vaqtning o'zida bir nechta vazifani bajarishga moyillik ham raqamli avlodning o'ziga xos psixologik belgilaridan biridir. Masalan, ular dars tayyorlash jarayonida musiqa tinglash, ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilish va internetdan ma'lumot izlashni parallel ravishda amalga oshiradi. Biroq diqqatning tez-tez almashishi uzoq muddatli konsentratsiyani pasaytirishi mumkin. Emotsional sohada ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri sezilarli. "Layk", izoh va kuzatuvchilar soni yoshlarning o'zini baholash darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Raqamli makondagi muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik psixologik barqarorlikka ta'sir qilishi mumkin. Shu bilan birga, kiberbulling va raqamli qaramlik kabi muammolar ham dolzarb hisoblanadi.

Shu bilan birga, raqamli avlodning ijobiy jihatlari ham mavjud. Ular mustaqil axborot izlash, tezkor qaror qabul qilish, innovatsion fikrlash va yangi texnologiyalarni tez o'zlashtirish qobiliyatiga ega. Interaktiv va muammoli vaziyatlarga asoslangan ta'lim metodlari ular uchun samaraliroqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. To'raqulov X.T. Pedagogika asoslari. – Toshkent: Fan, 2018.
2. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants. – New York, 2001.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, 1992.